

2025-yil 27-noyabr

Davlat xaridlarini o'tkazishda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro tajriba va amaliyot



Davlat xaridlari - davlat byudjeti mablag'larining samarali sarflanishini ta'minlaydigan muhim yo'nalish hisoblanadi. Tenderlarni ochiq, shaffof va adolatli o'tkazish har bir tashkilot uchun ustuvor vazifa.

Shu bois, xalqaro tajribani o'rganish, xorij mutaxassislari bilan o'zaro tajriba almashish va sohaga oid ilg'or amaliyotni joriy etish korrupsiyaga qarshi samarali kurashish, davlat xaridlarini adolatli o'tkazish va manfaatlar to'qnashuvining oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

"O'zkimyosanoat" AJ Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi boshlig'i

M.Mavlyanov va G'aznachilik operatsiyalari va ichki xaridlar bo'limi boshlig'i O.Rasulovlar Chexiya Respublikasining Praga shahrida tashkil etilgan o'quv kursida ishtirok etdilar.

"Davlat xaridlarini amalga oshirishda korrupsiyaga qarshi kurashish buyicha Yevropa tajribasi" mavzusidagi kurslar Jamiyat vakillari Yevropa amaliy fanlar va menejment universiteti (EIASM)ning yetuk va amaliy jihatdan katta tajribaga ega bo'lgan mutaxassislari tomonidan olib borildi.

Xalqaro tajriba nafaqat zamonaviy usullarni va ilg'or mexanizmlarni amaliyotga tadbiq etishga, balki manfaatlar to'qnashuvini kamaytirish va davlat mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/davlat-xaridlarini-o-tkazishda-korrupsiyaga-qarshi-kurashish>